



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-sentabr

443-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024 yil 29 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududning master rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi 497-son qarori ijrosi haqida”gi 406-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududning master rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi 497-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 29 avgustdagi 406-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, hududlarning qismlarini hududiy va iqtisodiy rivojlantirishni yaqin, o‘rta va uzoq muddatlarga rejalashtirish hamda mavjud muammolarning aniq yechimini va ularni hal etish mexanizmlarini o‘zida aks ettirgan master rejalarni ishlab chiqish tizimini joriy etish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 29 avgustdagi 406-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi 497-son qarori bilan:

hududning master rejasini ishlab chiqishga oid talablarni va hududning master rejasini kelishish, tasdiqlash hamda moliyalashtirish tartibini nazarda tutuvchi Hududning master rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash to‘g‘risidagi nizam 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish belgilanganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda tumanlar va shaharlarning master rejalarni ishlab chiqishni moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditini jalb qilish choralari ko‘rishi belgilanganligi;

Shunday tartib o‘rnatilganki, unga ko‘ra hududni rivojlantirish bo‘yicha reja va takliflar ushbu hududni rivojlantirishni rejalashtirish va qurish buyicha shaharsozlik hujjatiga muvofiq bo‘lmagan hollarda master reja ishlab chiqilganda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar

hokimliklari tomonidan uch oy muddatda hududning avval tasdiqlangan shaharsozlik hujjatiga belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev) hamda manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hududning master rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to'g'risida" 2024-yil 12-avgustdagi 497-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov hamda tuman hokimining o'rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**